

PAPER

JAHON MIQYOSIDAGI QASHSHOQLIK VA UNING SABABLARI

Bahodirova Sevinch^{1,*} and Ahmedjanova N²

¹Samarqand Davlat Chet tillari instituti II kurs talabasi and ²Ilmiy rahbar: Samarqand Davlat Chet tillari instituti o'qituvchisi

*sevinch@gmail.com

Abstract

Ushbu maqolada dunyo bo'ylab qashshoqlikda qancha aholi yashayotganligi, qashshoqlikka nimalar sabab bo'lishi va uni qisqartirish yo'llarini ko'rib chiqamiz.

Key words: Jahon Banki; UNDP; qashshoqlik; siyosiy beqarorlik; sarmoya.

Kirish

Qashshoqlik aslida nima? Jahon miqyosidagi qashshoqlik haqida so'z yuritar ekanmiz, avvalo, shu savolga javob berishimiz lozim.

Qashshoqlik –bu shaxs yoki ijtimoiy guruhning iqtisodiy holatining o'ziga xos xususiyati bolib ,bunda ular mehnat qobiliyatini saqlab qolish ko'payish kabi hayot uchun zarur bo'lgan minimal ehtiyojlarning ma'lum bir doirasini qondira olmaydilar. Qashshoqlik nisbiy va ko'p ma'noli tushuncha bo'lib , ma'lum bir jamiyatdagi umumiy turmush darajasiga bog'liq (Jini koeffitsiyenti, Teyl indeksi). Qashshoqlik global muammo hisoblanib, uni bartaraf etish bo'yicha turli xalqaro Jahon banki, UNICEF , EPN OXFAM kabi tashkilotlar faoliyat yuritib kelmoqda. Dunyo bo'ylab yashash sharoitlari va xarajatlarni o'rgangan holda Jahon banki tomonidan kuniga 2.15 dollardan kam daromad qiluvchilarni kambag'al deb hisoblanadi, ya'ni minimal yashash xarajatlarni qoplash uchun kuniga eng kamida 2.15 dollar daromad olish kerak.

Hzird kmbg'llik butun dunyoda nfqt iqtisdiy, blki huqur ijtimiy v madaniy mummodir. Birlashgan Millatlar Tashkilotining xabar berishicha, yer yuzida 1.1 milliard aholi o'ta qashshoqlikda yashaydi va ularning 455 millioni , ya'ni yarmi urush va mojarolar bo'layotgan mamlakatlarda istiqomat qiladi. [1] Yaqinda Jahon Banki – UNICEF hisobotida aytilishicha, dunyodagi 1.1 milliard aholining yarmidan ko'pi – 18 yoshga to'lmagan bolalar hisoblanadi. Bu aholining katta qismi urush va mojarolar bo'layotgan mamlakatlarda to'g'ri keladi va aynan mojarolar ichida yashayotgan mamlakatlardagi qashshoqlik ko'rsatkichini kamaytirish ham boshqa amlakatlarga qaraganda ancha sust

kechadi. “ So'nggi yillarda mojarolar kuchayib , ko'payib qurbonlar soni yangi cho'qqilarga ko'tarildi, millionlab odamlarni o'z uylarini tahlab ketishga majbur qildi, ularning hayotini vayron qildi va tirikchilik vositalaridan mahrum qildi” , – deydi UNDP rahbari Axim Shtayner.

Qashshoqlikka barham berish dunyo bo'yicha ustuvor vazifalardan biri bo'lib kelmoqda. Qashshoqlikning tomiriga bolta urish uchun ,avvalo, uning sabablarini o'rganib chiqishimiz lozim. Kambag'allikka sabab bo'luvchi asosiy omillarni yo'q qilibgina, biz uni qisqartirish yo'llarini izlay olamiz. Qashshoqlikning asosiy sabablarini birma-bir ko'rib chiqamiz:

o Iqtisodiy omillar: hozirgi kunda butun dunyodagi rivojlanayotgan mamlakatlarda kam daromad bilan ishlayotgan fuqarolar talaygina. Va bu kishilar o'z ehtiyojlarini qondirishga qiyinaladilar. Natijada ish tashlash holatlari yuzaga keladi va ishsizlik darajasi oshgan sari bu xalqaro kambag'allik darajasining oshishiga ham ta'sir qiladi.

Iqtisodiy muammolarni hal qilishda davlatning o'rni katta . Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish deganda davlatning jamiyat a'zolarining ehtiyojlarini qondirish darjasini oshirish uchun cheklangan ishlab chiqarish resurslaridan yanada foydalanishni ta'minlovchi, umumiy iqtisodiy muvozanatga erishishga yo'naltirilgan, ijtimoiy takror ishlab chiqarish jarayonini tashkil etish bo'yicha faoliyati tushuniladi. [2] Umumiy iqtisodiy muvozanatga erishish deganda ishsizlikni kamaytirish, kambag'allikni kamaytirish kabi masalalar ko'zda tutilgan. Bu uchun davlat tomonidan kam daromadli ishlarda oylik maoshlarni qanchadir miqdorda oshirish, ishsiz yoshlarni ish bilan ta'minlash,

aholiga subsidiyalar ajratish samarali yo'للardan biridir.

o Ta'limning yetishmasligi: aynan shu omil ham insonlarning ish topish imkoniyatlarini sezilarli darajada cheklaydi, ayniqsa bugungi rivojlanayotgan dunyoda, albatta, ta'lim muhim o'rinni egallaydi. Afg'oniston kabi urush yoki mojarolar ichidagi davlatlarda ta'lim tizimi yaxshi ahvolda emasligi bois ham qashshqolikdan chiqish bu kabi davlatlarda bir muncha sekin kechadi.

Ta'lim va sog'liqni saqlashda sarmoya kiritish odamlarning ish topish va yaxshi hayot kechirish imkoniyatlarini oshiradi. Har bir ta'lim olgan shaxsning ish topish va yuqori maoshli ishlarda ishlash imkoniyati boshqalarga qaraganda ko'proq bo'ladi va shu bilan birgalikda mamlakatda ta'limga sarmoya kiritish orqali kuchli mutaxassislarni yetishtirish, bu bilan esa mamlakat taraqqiyotiga ham hissa qo'shish mumkin. Kuchli mutaxassislar davlat rivojlanishida, iqtisodiy barqarorlikni saqlashda ham muhim rol o'ynaydi.

o Siyosiy beqarorlik: statistik ma'lumotlarga qaraganda dunyodagi qashshoq aholining 40 % qismi siyosiy jihatdan beqaror mamlakatlarda istiqomat qiladi. Bu aholining ko'p qismini yosh bolalar tashkil etishi esa ayanchli holat. Urush va siyosiy muammolar bilan kurashayotgan mamlakatlarda aholining minimum darajadagi xizmatlardan foydalanishgacha imkoniyatlari yo'q.

Butun dunyo bo'yicha tinchlikni saqlash va kambag'allikni qisqartirish bo'yicha turli chora tadbirlar olib borilmoqdava davlatlar o'rtasidagi ichki nizolarni tinchlik yo'li bilan hal qilishga harakat qilishmoqda.

Conclusion

Xulosa qilib aytganda, Jahon miqyosidagi qashshoqlik murakkab va ko'p qirrali masala bo'lib, uni qisqartirish uchun ko'p tomonlama yondashuv talab etiladi. Iqtisodiy o'sish, ta'lim va sog'liqni saqlashga investitsiyalar, gender tengligi va ijtimoiy himoya tizimlarini mustahkamlash muhim ahamiyatga ega. Qishloq xo'jaligini rivojlantirish va barqaror infratuzilmani yaratish orqali qashshoqlikka chalingan hududlarning iqtisodiy salohiyatini oshirish mumkin. Xalqaro hamkorlik va davlat siyosatining samarali amalga oshirilishi bu jarayonda hal qiluvchi omil hisoblanadi. Innovatsiyalar va texnologiyalarni qo'llash ham qashshoqlikka qarshi kurashda muhim rol o'ynaydi. Uzoq muddatli strategiya va doimiy monitoring orqali maqsadga erishish mumkin.

References

1. Azimov, B. F., Maksudovich, A. Z., and Qudratova, G. M. (2025). INNOVATIVE ACTIVITY AS A FACTOR IN ECONOMIC DEVELOPMENT. *Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research*, 12(01), 453-459.
2. Naimov R. M. BARQAROR IQTISODIY O'SISH ASOSIDA KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH MEXANIZMLARI ANALYSIS OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION 1 (6), 104-114, 2025
3. Patrick Brandful Cobbinah, Rosemary Black, Rik Thwaites Dynamics of poverty in developing countries: Review of poverty reduction approaches *Journal of sustainable Development* 6 (9), 25-35, 2013
4. Xamidova Z. Davlat sedativlar va mashqlar *Nordic_Press* 2 (0002), 2024
5. <https://news.un.org/en/>
6. <https://www.worldbank.org/ext/en/home>
7. <https://www.undp.org/>